

**M.NIZANOVNING “MUBORAKSHINA” QISSASIDA  
QAHRAMON OBRAZINING YARATILISH XUSUSIYATLARI  
(PROTOTIP VA BADIY OBRAZ, DIALOG VA MONOLOGLAR)**

**Qosbergenova Bekziya Ayapbergen qizi**  
*QDU Qoraqalpoq adabiyoti I kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada yozuvchi M.Nizanovning “Muborakshina” qissasida qahramon obrazining yaratilish xususiyatlari berilgan. Obraz yaratishda prototip, dialog, monologlarning xususiyatlari haqida so‘z yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *obraz, qissa, prototip, dialog, monolog, Muratbay Nizanov, syujet, kompozitsiya, estetik ta’sir*

Badiiy adabiyotni obrazlarsiz tasavvur qila olmaymiz. Obraz bo‘lmasa badiiy asar ham bo‘lmaydi. Obraz atamasi qoraqalpoq adabiyotshunoslik ilmiga rus tili orqali kirib keladi. Obraz - qiyofa, siymo, shakl kabi ma’nolarni beradi. Badiiy asarda yozuvchi qalamiga obyekt bo‘lgan har qanday narsani, voqeani, hodisani "obraz" deb atashimiz mumkin. Obraz yaratish - badiiy adabiyotning asosiy xususiyati, obrazlilik uning asosiy sifati. Yozuvchi o‘z davrining xarakterli belgisini, muhim hisoblangan masalalarini yig‘ib, tipiklashtirib obraz orqali haqiqiy hayotning manzarasini yaratadi<sup>77</sup>. Masalan, mazkur M.Nizanov “Muborakshina” qissasida Muborakshina obrazi orqali fidoyi ustoz obrazi tasvirlangan.

Tarixiy asarda asosiy obrazlar prototiplar asosida yaratiladi. Yozuvchi asar yozish uchun, o‘zi asosiy qahramon qilib tanlagan shaxslar haqida tarixiy haqiqatni o‘z qahramonlariga tarix bergan tavsifni hozirgacha saqlanib qolgan tarixiy manbalarni o‘rganadi. O‘z mualliflik konsepsiyasi asosida yozuvchi prototipning o‘ziga kerakli belgilarini obrazga kiritadi, keraksiz deb hisoblagan jihatlarini tashlab ketadi. Lekin, prototipning xarakteriga xos eng asosiy belgilar olinishi shart. Badiiy haqiqatda prototipning tarjimai holiga oid barcha faktlar olinmasligi ham mumkin, balki badiiy haqiqat yaratish uchun, obraz yaratish uchun kerak bo‘lgan asosiy faktlarga tanlanadi. Shular bilan bir qatorda, prototipda yo‘q xususiyatlar, uning hayotida bo‘lmagan faktlar obraz yaratish uchun yozuvchining badiiy fantaziyasidan qo‘shilishi ham mumkin<sup>78</sup>.

Mana, shunday yozuvchi M. Nizanovning “Muborakshina” qissasida ham bosh qahramon - Muborakshina qissasi prototip obraz. U o‘tgan asrning 70-80-yillarida Qonliko‘l tumaniga bola o‘qitish uchun kelgan rus tili o‘qituvchisi bo‘lgan yosh tatar qizi edi. Muborakshina qissasining yozilishida yozuvchi Muborakshinaning o‘quvchilarini izlab topib, o‘sha o‘quvchilarning

<sup>77</sup> S. Axmetov, K. Sultanov. *Ádebiyattanıw*. –Nókis: “Qaraqalpaqstan”, 1987.

<sup>78</sup> Өтемуратова X. *Қарақалпақ тарийхый романының поэтикасы*. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1997. –Б.3.

## **“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

bergan ma'lumotlariga hamda Muborakshinaning qizi Rifaga xat yo'llab, o'sha xatda keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda qissani yaratadi.

Bu maktubda – “Mening onamni esga olganingiz uchun ming marta rahmat. Men unga sizlarda chiqqan gazetani ko'rsatdim. U maqolada aytilgan o'quvchilarni nazarda tutib o'tiribdi. Undan tashqari yana to'rt-besh o'quvchisini tilga oldi. Oltinchi sinfda uylangan turkman bolani ham esladi. Umuman oyimni tinglab o'tirsang qiziq. Lekin ora-sira unutib qolaveradi, “hozirgina aytuvdim,” - deb so'raydi.

Hozir bilasiz hamma joyda karantin. Epidemiya tarqagandan keyin albatta, Qoraqalpog'istonga boraman. Onamning bola o'qitgan maktabini ko'raman. Hozircha uning o'quvchilariga ustozining salomini yo'llab qolaman. Hurmat bilan Rifa.” , - deb yozilgan edi.

Muallif esa qissaning oxirida: “Mana siz o'qib tanishgan opangiz Muborakshina Gafifabonu Qayum qizi. U hozir 85 yoshda (2021-yilda). Quvnoq. Bundan 65 yil oldin o'qitgan o'quvchilarining ismini, hatto, ota-onalarining erkalar aytilgan laqablarigacha eslay oladi.

O'quvchilari uni juda yaxshi ko'rishgan. Ta'tilga ketayotganda “Rus yo'l”gacha kuzatib qo'yib, kelganda kutib oladi ekan.

Muborakshina yurtiga qaytganidan keyin o'quvchilaridan xat olib turgan. U shu xatlarni bugungacha saqlab qo'yibdi. Biz o'sha opaning yuborgan xatlarining nusxasi bo'yicha o'quvchilarini izlab topdik va ustoz va shogirdlarni internet tarmog'i orqali bog'lashga muvaffaq bo'ldik.

Muborakshinaning ustozlik qilgan qishlog'i hozirgi Qonliko'l tumaniga qarashli “Olimko'k”ning qishlog'i degan joy,” - deb qissaning materiallarni yig'ish jarayoniga sharh qiladi.

Shuningdek, obraz yaratishga ikki odamning o'zaro suhbatlari yoki bir odamning o'z-o'zidan gaplashishi (dialog, monolog) ko'p yordam beradi. O'zaro suhbatlarini berish orqali yozuvchi ularning ichki dunyosining, tushunchasining, fikr-tuyg'usi bilan psixologik xususiyatining mazmunini ko'z oldiga keltiradi. Nasriy asarlarda syujet bayon qilish usuli unumliroq qo'llaniladi. Ammo Muratboy Nizanovning ayrim hikoyalarida boshidan oxirigacha dialog shaklida berilgan, dialogdan tashkil topgan asarlar ham uchraydi. Dialog yordamida voqea boshlanib, dialog bilan o'sib rivojlanadi va yakunlanadi.

“Muborakshina” qissasida ham shunday dialogga qurilgan voqealar juda ko'p. Masalan, Uyga kelishim bilan oyimdan suyunchi so'radim.

- Opa, opa muallim namoz o'qiydi ekan.

- Qaysi muallim?

- Muborakshina!

- Shundaymi? Xudo sevgan qiz ekan. Tatarlar o'zi diniga mahkam bo'ladi, deb suyundi,- degan kampir opasi bilan Nag'imaning suhbatini misol qilib olsak bo'ladi.

Muallifning “Muborakshina” qissasi maktab yoshidagi bolalar uchun yozilgan bo'lishi mumkin, chunki muallif qissaning oxirida:

## **“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI**

- Qani bolalar, endi nima qilamiz?
- Muborakshinaning qizini kutamiz.
- Rifaning kelishini kutamiz.

Oldinda bir yaxshi niyatni kutib yashagan qanday yaxshi. Bizlar ham hozir shunday niyatdamiz”<sup>79</sup> deb muallifning yakunlovchi so‘zi beriladi. Yozuvchi M.Nizanovning asarlarini o‘qiganimizda yozuvchining so‘zga mohirona saralab qo‘llash xususiyati va tajribasi sezilib turadi.

Umuman olganda, bu qissada Qonliko‘l tumanining chekka qishloqlaridan birida uch yillik umrini qoraqalpoq bolalarini o‘qitishga bag‘ishlagan Fidoyi ustoz Muborakshinaning o‘z kasbiga bo‘lgan fidoyiligi, bolalarga bo‘lgan mehribonligi, qoraqalpoq xalqiga bo‘lgan hurmati yaxshi tasvirlangan. Qissani yozishda muallif Muborakshinaning o‘quvchilari bilan bir-biridan xabar olgan xatlaridan foydalangan va ularni badiiy matnga tushirgan.

M.Nizanov “Muborakshina” qissasida XX asrning 70-80-yillarida Qonliko‘l tumaniga bola o‘qitish uchun kelgan rus tili o‘qituvchisi bo‘lgan yosh tatar qizi timsolida Muborakshina prototip obrazini mahorat bilan yarata olgan. Qoraqalpoq bolalarini o‘qitishda fidoyilik bilan xizmat qilgan ustoz Muborakshinaning o‘z kasbiga bo‘lgan sadoqatini, mehnatsevarligini badiiy obrazli tarzda tasvirlab bergan. Asar syujetidagi voqealarning ochilishida, qahramon obrazini yaratishda muallif monolog va dialoglardan unumli foydalangan. Yozuvchining nomi tilga olingan qissa uni o‘qigan kitobxonlarda chuqur taassurot qoldirib, ustozlik kasbiga bo‘lgan chuqur mehrni oshirishi shubhasiz. Yozuvchining har bir qissasidagi barcha obrazlar jamiyatda real mavjud bo‘lgan obrazlar hisoblanadi. Bu qissani o‘qigan o‘quvchi va tomosha qilgan tomoshabin obrazlarni ko‘z oldida gavdalandirish orqali ma‘lum darajada saboq oladi va ularga o‘zining ongli munosabatini bildiradi. Mana, shu narsa badiiy asarning estetik ta’siri deb aytiladi. Epik asarlarda estetik ta’sir ancha yuqori bo‘ladi. O‘quvchilarning asardagi obrazlarga simpatiyasi yoki antipatiyasi paydo bo‘ladi. Epik asarning syujeti va kompozitsion qurilishi ham asarning ta’sir doirasini ancha oshiradi.

### **FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.S. Axmetov, K.Sultanov. Adbiyattanıw. –Nókis: "Qaraqalpaqstan", 1987.
2. Өтемуратова Х. Қарақалпақ тарийхый романының поэтикасы. – Нөкис: Қарақалпақстан, 1997.
- 3.Нызанов М. Мубаракшина. Повесть. – Нөкис: Билим, 2021.

---

<sup>79</sup>Нызанов М. Мубаракшина. Повесть. – Нөкис: Билим, 2021. – Б.96.